<i>Burkhiev Olimjon Boboevich</i> SYSTEM OF APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGY AS A MEANS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN A UNIVERSITY .....	424-429

**Received:** 05 May 2024  
**Accepted:** 10 May 2024  
**Published:** 25 May 2024

*Article / Original Paper*

## **EXPLORING INTERTEXTUALITY IN JEAN RHY'S "WIDE SARGASSO SEA"**

**Imamova Gulrukh**

Second stage master's student of English Literature, BukhSU

**Abstract.** In this article, various examples from Jean Rhys "Wide Sargasso Sea" are presented and analyzed to demonstrate the utilization of a postmodernistic approach and intertextuality within the text.

**Keywords:** moral motive, action, humanity, upbringing, activity, hero, epithet, song.

## **JIN RIZNING "WIDE SARGASSO SEA" ASARIDA INTERTEKSTUALLIK**

**Imamova Gulrux**

Ingliz adabiyotshunosligi II bosqich magistranti, BuxDU

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Jin Rizning "Wide Sargasso Sea" romani postmodernistik xususiyatlari, ayniqsa, intertekstual yondashuv muammosi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** axloq motivi, harakat, insoniyat, tarbiya, faoliyat, qahramon, epitet, qo'shiq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N34>

**Kirish.** Julia Kristeva, Ferdinand de Sossyur hamda Baxtinning til va adabiyot nazariyalaridan foydalangan intertekstuallik haqidagi nazariyani 1960-yillarning so'ngida fanga kiritdi. Kristevaning fikricha "Har bir matn boshqa tekstga intertekstual tarzda yoziladi. Matnlarning barchasi gorizontaal va vertikal o'qqa ega: gorizontaal o'q bu muallifni kitobxon bilan bog'lasa, vertikal o'q bir tekstni boshqasiga bog'laydi." [8; 69-b.] Adabiy tanqidchilar intertekstuallikni iqtiboslar, ishoralar (allusions) va boshqa o'zgartirishlar orqali boshqa tekstlarni yaratishda ishlatiladi deb ta'kidlashadi.

Jin Riz Dominikada tug'ilgan va qora tanlilar ichida o'zini doim yolg'iz his qilgan oq tanli qiz edi. Yozuvchi W.H. Smith sovriniga sazovor bo'lgan "Wide Sargasso Sea" asari bilan dunyoga tanildi. Ushbu roman butun dunyoga "Jeyn Eyr" asarigacha bo'lgan voqealarni tasvirlaydigan roman sifatida tanilgan romandir. Ushbu fikrga kelishimizning asosiy sababi yozuvchining "Jeyn Eyr" asaridagi kabi jinni ayol obrazini va uning turmush o'rtog'ini Janob Rochester deb bilishga ishora qilganligidir.

Romanda bosh qahramon Antuanet Kosvey degan qiz bo'lib, u kreollar ya'ni kelib chiqishi yevropalik ammo Britaniya mustamlakasi bo'lgan Dominikada dunyoga kelgan. Asarda uning yoshligi hamda ismi eslatib o'tilmagan, asl inglizga turmushga chiqishi va u bilan bo'lgan baxtsiz turmushi va aynan turmush o'rtog'i tomonidan asar protogonisti boshqa ism bilan chaqirilganligi, jinni deb Angliyaga olib kelinganligi kabi voqealar yoritiladi. Antuanet zolim jamiyatda, ya'ni na yevropalik na Dominika mahalliy tub aholisiga tegishli bo'lmagan jamiyatda



istiqomat qiladi. Asar oxirida yosh qahramon jinni degan tamg'a ostida Tornfild degan qo'rg'onning eng tepa qavatida tutqinlikda saqlanadi. "Wide Sargasso Sea" da intertekstuallik haqida eslatib o'tar ekanmiz, Jin Riz o'zining dunyoga mashhur "Wide Sargasso Sea" asaridagi intertekstuallik misolida har bir asar boshqa bir asarning davomi degan maqsad yotadi.

**Asosiy qism.** Jin Riz va Sharlotta Bronte turli xil oqimlarda ijod qilishgan. Sharlotta Bronte Viktoriya davri namoyondasi bo'lsa, Jin Riz postmodernistik adabiyot vakilasidir. Herrishianning ta'kidlashicha "Jin Riz "Wide Sargasso sea" asarini yozishda Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" asarini asos sifatida tanlaganligi sababli bu ikki asar o'zaro o'xshashliklari va farqlari juda ko'p. Shuning uchun ushbu asarni "Jeyn Eyr" asariga javob sifatida yozilgan deyish mumkin". [6; 72-b.] Abraham va Harrisonning ham fikricha "Brontening asariga javob sifatida, "Riz nafaqat "Jeyn Eyr"da eslatilmagan qismlarni balki "Kreol ayol" o'zining Britaniya mustamlakalaridagi ahvolidan kelib chiqqan vaziyatini bayon qildi". [6; 73-b.] Demak, Jin Riz intertekstuallikdan foydalanganligining isboti sifatida uning "Jeyn Eyr" asarining qahramonlaridan foydalanganligini ko'rsatib o'tish mumkin.

Jin Riz "Jeyn Eyrdagi bu turdagi fojiali yakundan qoniqmadi. U Berta, Rochesterning birinchi xotining bu turdagi tasviriga ko'nmadi. "Jeyn Eyr" asarini o'qib tugatar ekan, aynan shu qahramon haqida yozishga qaror qiladi. Vrilend bilan bo'lgan intervyusida "Bolaligimda "Jeyn Eyr"ni o'qir ekanman nima uchun kreol ayollarni telba sifatida tasvirlagan degan fikr meni qiynagan. Janob Rochesterning birinchi xotining o'zini tutishi qanday uyat edi, bu kabilarni o'qib aslida qanday bo'lganligi haqida yozishga qaror qildim." [12; 74-b.] Shu o'rinda Shalotta Brontening ko'plab asarlarida Angliya mustamlakalardagi hayot haqida ko'plab holatlar mavjud. Bir vaqtlar Britaniya koloniyalari ham boy hayot tarziga ega bo'lgan davlatlar edi va ko'plab yozuvchilar ular haqida yozishar edilar. Jin Riz "Jeyn Eyrdagi"gi ikkinchi darajali qahramon bo'lgan Bertani o'zining asarida asosiy qahramonga aylantirib uni Antuanet deb ataydi.

"Wide Sargasso Sea" romanida voqealar rivoji Antuanetning aqldan ozgunigacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi. Yozuvchi asarda Antuanettani hech qanday tushuntirishlarsiz bot-bot Berta deb ham ataydi. Shunday ekan, agar kitobxon Sharlotta Brontening Jeyn Eyr asariga nazar solar ekan, asarda Berta ismiga duch kelishi unda Antuanet va uning eri Jeyn Eyrdagi Berta va Rochestrmi degan savol tug'iladi. Riz ismni o'zgartirish bilan bir qatorda makonni Angliyadan Yamaykaga o'zgartiradi. "Wide Sargasso Sea" da Bronte o'z romanida ishlatgan birinchi shaxs hikoya qiluvchidan uchinchi shaxs nomidan hikoya qilish usulidan foydalanishni ma'qul deb topadi. Hikoya qiluvchilar Jin Rizning asarida bir necha kishi bo'lgani bilan asosan bosh qahramon, Antuanetning o'zi hikoya qilib beradi. Brontening asari Jeynning bolaligidan boshlanib yetuklik davrigacha bo'lgan voqealarni yoritib beradi va aynan shuning uchun bu asarni Jeyn haqidagi hikoya desak xato bo'lmaydi. Jin Riz Brontening romanida kam eslatib o'tiladigan qahramonlardan birini tanlaydi hamda o'z romanida uning ismini Antuanet deb o'zgartirgan holda asosiy qahramon sifatida kiritadi. Jin ham Bronte kabi Antuanetning bolaligidan to yetuklik davriga yetishigacha bo'lgan davrni tasvirlaydi.

Jeyn o'zining g'amgin bolaligi haqida hikoya qiladi. Zulmkor xolasi Rid xonim, keyinchalik badjahl maktab rahbari qo'l ostida tahsil olgan Jeyn barcha qiyinchiliklarni yengib o'tadi va do'stlar ortirradi. Barcha qiyinchiliklarni yengib o'tgan Jeyn o'ziga ishongan shaxs bo'lib yetishishiga sabab bo'ldi. Abramning ta'kidlashicha "Bu romanning subyeksi protoganistning bolaligidagi to yetuklikka qadar turli qiyinchiliklar asosan ma'naviy bosimlar

qahramonning aqliy va xarakterida yetuklikka erishish va shaxs sifatida dunyoda o'z o'rniga ega bo'lishiga sabab bo'lishidir". [1; 12-b.] Jin Riz Sharlotta Bronte tanlagan usuldan foydalanadi. "Jeyn Eyr" dagi unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan qahramonlardan birini tanlab uning hayotini detallarga ajratib hikoya qiladi.

U romanni kreol qizning ham oq tanli ham mahalliy aholi bo'lgan qora tanlilar tomonidan o'z jamiyatlariga qabul qilinmaganligini tasvirlash bilan boshlaydi. Antuanet go'yo ikki dunyo oralig'ida qolib ketganday tasvirlanadi. Sharlotta Bronteday Jin Riz ham bosh qahramonini o'z onasi tomonidan emas balki tutingan onasi Kristofin tomonidan ko'proq qo'llab quvvatlanganligini, o'z tuqqan onasi yetarlicha mehr bera olmaganligini yoritib beradi. Garchi ikkala qahramon ham o'xshash bolalikni boshidan o'tkazgan; ikkalasi ham yolg'izlikdan qiynalgan, hayotida kuchsiz, biron ko'magisiz ayniqsa atrofida qo'llab-quvvatlaydigan kishilari bo'lmagan jamiyatda o'sishgan bo'lishsada ikkilasining taqdiri ikki xil yakun topdi. Jeyndan farqli o'laroq Antuanet zulmkor jamiyatda o'z o'rnini topa olmadi. Jeyn jamiyatdagi qiyinchiliklardan kuchli ayolga aylanib borar ekan, Antuanet aksincha zaiflashib tobora onasi Annet kabi aqldan ozishga yanada moyil bo'lib boraverardi. "Riz ushbu asarida bosh qahramoni an'analar va ijtimoiy qarashlar turli-tuman hamda tubdan beqaror vaziyatlarda o'z shaxsini yaratishga harakat qilayotgan vaziyatni ifodalaydi." [6; 75-b.] Garchi ikkala qahramon ham ozodlik va mustaqillikka harakat qilishgan bo'lishsada, Jeyn qiyinchilik va muammolarni yengib o'tdi va o'zi xohlaganidek mukammal inson bo'lib yetishdi ammo Antuanet hayot qiyinchiliklariga qarshi o'zida yetarlicha bardosh topa olmadi. Zaifligi hamda madaniy kelib chiqishi boshqacha bo'lgan Antuanetni hayot qiyinchiliklarni yengadi.

Adabiy tanqidchi Herishianning ta'kidlashicha Antuanetning hayoti yoritib berilgan hamda uning o'zligini va es-hushini yo'qotganligi to'g'risidagi tasvirlangan "Wide Sargasso Sea" asarini anti-bilding romanlar qatoriga kiritish mumkin. Antuanet o'z bolaligini ham oq tanlilar ham qora tanlilar bo'lgan jamiyatda o'tkazdi, ammo uning psixikasining rivoji umuman boshqacha kechdi." [6; 75-b.]

Tush motividan "Jeyn Eyr" asarida keng foydalanilgan hamda "Wide Sargasso Sea" asarida ham aynan shu motivga bot-bot duch kelishimiz mumkin va bu ham Jin Rizning Sharlotta Brontening yana bir yozish usullaridan foydalanish deb ta'kidlanadi. Ikkala muallif ham ko'rgan tushlari orqali kelajakka ishorani va bu ikki asarda ikki bosh qahramonning istaklari va qo'rquvlarini aynan tushlari orqali namoyon bo'ladi. O'sha qahramonlar yashagan jamiyatlarda tush kelajakdan so'zlaydigan, ilohiyot va insoniyat o'rtasidagi vosita sifatida ifodalangan.

Psixoanalitiklarning fikricha tushlarni ilmiy jihatdan ham talqin qilish mumkin. Frodning o'zining "Tush talqini" asarida tush bu yashirin fikrlardir deb ta'kidlaydi. Tush paytida shaxs(ego) hayotning barcha manfaatlaridan voz kechadi, fikrlar va istaklarga e'tibor qaratiladi. Ushbu yo'l orqali fikrlar va istaklar tushlarda joy almashishadi. Aynan shuning uchun Frodning tarflashicha "Tush kuchli istakning yashirin namoyon bo'lishidir". [5; 577-b.] Ikkala asarda ham bosh qahramonlar tushlarida o'z kelajaklari va o'zliklarini anglash maqsadida nishona izlashadi. "Jeyn Eyr" asari rivojida, Jeyn bola tasviri bo'lgan bir nechta tush ko'radi. Adabiy tanqidchi Habibning tushuntirishlariga ko'ra "Tush kuchli istakning amalga oshishini ifodalashi bilan birga, oldingi kunning ongsiz faoliyatini davom ettirishi, niyat, ogohlantirish yoki mulohazani ham bildirishi mumkin". [5; 577-b.] Sharlotta Brontening tush tasvirini o'z asarida qo'llashidan asosiy maqsad o'z qahramonining ichki dunyosi haqida ma'lumot berish,

uni kitobxon nazarida yanada yaxshiroq gavdalanishiga imkon yaratish edi. Muallif Jeyning ichki dunyosi Rochesterga nisbatan kuchli muhabbatini aynan shu yo'l bilan ifodalaydi.

Adabiy tanqidchi Gordonning aytishicha "Jeyn Eyr"da tush kelajak voqealari haqida ogohlantirish yoki uning orzulari umumiy belgilar, ramz sifatida foydalanilgan". [4; 11-b.] Kunlardan birida Jeyning tutingan onasi tushida yosh bolani ko'rganligini va tushda bolani ko'rish g'am keltirishi aytgan gapini eshitib qolgan Jeyn u gapga ishonadi. Kelasi kuni Jeyn Bessining opasi o'lim to'shagida ekanligidan xabar topadi. *"When I was a little girl, only six years old, I one night heard Bessie Leaven say to Martha Abbot that she had been dreaming about a little child; and that to dream of children was a sure sign of trouble, either to one's self or one's kin. Memory, had not a circumstance immediately followed which served indelibly to fix it there. The next day Bessie was sent for home to the deathbed of her little sister"*. [2; 159-b.] Kunlardan bir kun bolani tushida ko'rgan Jeyn ham qo'rquv iskanjasida qoldi. Kelasi kuni Jeyn Jon degan jiyanining o'limi hamda Rid xolasining o'lim to'shagida ekanligidan xabar topadi. Bunday voqeadan keyin Jeyn hafta davomida tushida bolani ko'rmaslikdan qo'rqqan holda uyquga ketadi. Janob Rochester bilan unashtirilganidan keyin ham Jeyn bola tasviri mavjud bo'lgan tushni ko'radi. Jeyning tush ko'rish holatlari butun asar davomida davom etadi.

Gordonning ta'kidlashicha "Jeyn Eyr"ni qayta yozar ekan Jin Riz ham xuddi shu yo'lni tanlaydi hattoki "Wide sargasso Sea" asarini butun bir tushga o'xshatib yozadi. "Jeyn Eyr"da tush va kishining uyg'oqligi o'rtasidagi farq xuddi Jeyning xarakteriday yaqqol tasvirlangan bo'lsa "Keng Sargasso dengizi"da bu aksincha ifodaga ya'ni Antuanet kabi kuchsiz tarzda namoyon etilgan bo'lib ba'zan tush va o'ng o'rtasidagi farqni anglash qiyin". [4; 152-b.]

Ammo ikkala asarda ham tush bir xil vazifani o'taydi. Jeyning tushlari kabi Antuanetning tushlari ham ma'lum bir ma'no kasb etadi. Jeyn Eyrning hamda Antuanetning tushlari kelajakdan so'zlaydi. Antuanetning tushlari, shuningdek, hayajon, qo'rquv juda qattiq xohish hamda o'zligini anglashni ifodalaydi. Asar davomida Antuanet bir-birini davom ettiradigan uchta tush ko'radi. Antuanet birinchi tushini bolaligida Tina tomonidan aldangandan kuni ko'radi. Bu tushida bosh qahramon o'rmonda begona bir kishi uni quvib kelayotganini ko'radi. *"I went to bed early and slept at once. I dreamed that I was walking in the forest. Not alone. Someone who hated me was with me, out of sight. I could hear heavy footsteps coming closer and though I struggled and screamed, I could not move. I woke crying"*. [7; 24-b.] Ushbu parcha uning uyqidagi ongida qo'rquv va paranoyya, bu esa o'z navbatida uni kutayotgan qo'rqinchli kelajagini bashorat qiladi. Ortidan nafratlanadigan kishining quvib kelishi protagonistning xavf solayotgan kelajagidan ishora qilar edi.

17 yoshligida Antuanet o'gay otasining ortidan yo'qlab kelganligidan keyin ikkinchi tushni ko'radi. Bu safar ham Antuanet o'rmonni tush ko'radi ammo bu safar u yuzsiz kishi ortidan boradi. Uning ortidan bog' tomon borar ekan yig'lab o'tinishlariga qaramay uni to'xtata olmaydi. Uyqusidan qo'rqib, titrab uyg'ongan Antuanet barini rohibaga do'zzaxni tush ko'rdim deb aytib beradi. *"This was the second time I had my dream. Again I have left the house at Coulibri. It is still night and I am walking towards the forest. I am wearing a long dress and thin slippers, so I walk with difficulty, following the man who is with me and holding up the skirt of my dress. It is white and beautiful and I don't wish to get it soiled. I follow him, sick with fear but I make no effort to save myself; if anyone were to try to save me, I would refuse. This must happen. Now we have reached the forest. We are under the tall dark trees and there is no wind. "Here?" He turns and looks at me, his face black with hatred, and when I see this I begin to cry. ...* [7; 54-b.] Bu tush

ham Antuanetni ayanchli kelajagidan darak berar ammo bularning yaqin kelajakda sodir bo'lishidan ishora berar edi. Bu tushidagi tashvishlarga Antuanet Rochesterni uchratishidan ham darak berar edi.

Sharlotta Bronte kabi Jin Riz ham o'z qahramoninig ichki dunyosi va kechinmalarini tushlar orqali namoyon qiladi. Gordonning ta'kidlashicha Antuanettaning butun hayotini real yoki mantiqiy emas, balki his-tuyg'ular, his-hayajonga boy tasvirlar bilan to'la ekanligini ta'kidlaydi va uning orzulari nafaqat o'ngida balki uxlayotganida ham oshkor bo'lmaydi. Riz romanini Antuanetning so'nggi tushi bilan yakunlaydi. Bu tush "Wide Sargasso Sea" romanini "Jeyn Eyr" asariga bog'laydigan syujet bo'lib hisoblanadi. Bronte Berta degan qahramonini juda og'ir xarakter sohibasi sifatida tasvirlaydi. Asar yakunida alanga ichida qolgan Berta qochish maqsadida o'z joniga qasd qiladi. Riz bunday yakundan, Bertaning salbiy tasviridan qoniqmaydi. Aynan shu yakunni Riz o'z asaridagi Antuanetning so'nggi tushi bilan bog'laydi.

*"That was the third time I had my dream and it ended. I know now that the flight of steps leads to this room where I lie watching the woman asleep with her head on her arms. In my dream I waited till she began to snore, then I got up, took the keys and let myself out with a candle in my hand..."* [7; 68-b.] Yuqoridagi parchada Jin Riz Sharlotta Brontedan farqli ravishda, Bertani kitobxon nazdida asarining protogonistini asar oxirigacha ijobiy, begunoh tarzda gavdalantirishga harakat qiladi.

Uning taqdirini ham tush tarzida tasvirlaydi. U asarni yakunini tasvirlamaydi va uni ochiq qoldiradi. "Jeyn Eyr" da Berta Tornfildni kulini ko'kka sovurib o'zini tomdan pastga tashlar ekan "Wide Sargasso Sea" asarida Antuanet asar oxirigacha begunohligicha tasvirlanadi. "Jeyn Eyr" da shavfqatsizlarcha qasd olishga harakat qilishga urinishlar "Wide Sargasso Sea" romanida xuddiki tushda bo'lgan voqealar kabi tasvirlanadi. O'z asarining yakunida g'alaba tasvirini berishga harakat qilgan Jin Riz o'z qahramoni, Antuanetni halokatli taqdiridan saqlab qoladi.

"Wide Sargasso Sea" va "Jeyn Eyrda" ham gotik elementlaridan foydalanilgan qismlarni uchratish mumkin. Bu esa bu ikkala asarni bog'lovchi yana bir xususiyatdir. XIX asrda keng urf bo'lgan Horas Wolpalning "The Castle of Otranto" asaridan boshlangan gotik elementlardan foydalanish "Jeyn Eyr" da mavjud va bu asardan ilhomlanib o'z asarini yozgan Jin Riz "Wide Sargasso Sea" asarida ham mavjuddir. gotik usulidan foydalanib yozilgan asarlarda qorong'u, nam xonalar ayniqsa yashirin yo'lakli qasrlar, arvohtar, dahshat, qorong'ulik, aqldan ozish va g'ayritabiiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan g'ayrioddiy, dahshatli va melodramatik voqealar o'z ichiga oladigan asarlardir. "Jeyn Eyr" da gotik asarlarda uchraydigan qirralardan bu arvohtar hamda g'ayritabiiy voqealarning sodir bo'lishidir. Jeyn o'n yoshligida "qizil xona" deb ataladigan xonaga xolasi tomonidan jazo tariqasida qulflab qo'yiladi. Rid amakisi aynan shu yerda vafot ekanligi tufayli Jeyn uchun bu xona rossa qo'rqinchli edi. Xona devorlari qizil bo'lganligi tufayli Jeyn u devorlarni qonga o'xshatar va u yerda o'zini yomon his qilardi. Ko'chada yog'ayotgan yomg'ir xonaga tushayotgan yorug'likni silkinib tushishiga sabab bo'lar, Jeynga esa bu holat go'yoki amakisining arvohi izg'ib yurganday tuyildi. Jeyn amakisining arvohi aqlli qiz bo'lmaganligi uchun uni jazolashga kelgan deb o'ylashdan to'xtamas edi.

*Was it, I asked myself, a ray from the moon penetrating some aperture in the blind? No; moonlight was still, and this stirred; while I gazed, it glided up to the ceiling and quivered over my head. I can now conjecture readily that this streak of light was, in all likelihood, a gleam from a lantern carried by some one across the lawn: but then, prepared as my mind was for horror, shaken*

*as my nerves were by agitation, I thought the swift darting beam was a herald of some coming vision from another world. My heart beat thick, my head grew hot; a sound filled my ears, which I deemed the rushing of wings; something seemed near me; I was oppressed, suffocated: endurance broke down; I rushed to the door and shook the lock in desperate effort.*[ 2; 16-b.]

Bu qismda Bronte qo'rqinchli muhitni tasvirlab bergan. Ushbu tasvirni kitobxon his qilishi maqsadida Charlotta Bronte Jeynning tutingan onasi Bessiga ichidan o'tgan barcha voqealardan aytib bergan parchani o'z asariga kiritadi.

*"I saw a light, and I thought a ghost would come"*[2; 17-b.] Shuningdek Tornfildga borgan Jeynning Feyarfaks xonimga bergan savollaridan biri *"So I think: you have no ghost, then?"*[2; 127-b.] *Bu yerda arvoqlar yo'qdir degan savol edi.* "Jeyn Eyr" asarida makon masalasida gotik elementlari mavjud edi.

Asosiy voqealar Tornfildda sodir bo'ladi. Bu joy qorong'u, sirli, oy nurlaridan jumbushga keladigan g'ayriodatiy tuyg'ular, momoqaldiroq, nam va sovuq, sirli shovqin va oyoq tovushlarining asarda bo'lishi ham gotik usulining belgilari deb ham ataladi. Rochester va uning sirli turmush o'rtog'i bo'lgan aqldan ozgan xotini Berta haqidagi tasvir ham gotik uslubdir. Jeyn Eyrda gotik uslubidan foydalanishdan yana bir maqsad o'quvchi ongida qo'rquvga soladigan, psixologik shubha tuyg'usini yaratish bo'lgan. Bronte ishidan ilhomlangan Jin Rizham o'z asaridan gotik usuliga xos qirralarni joyladi.

U nafaqat bu usuldan foydalandi balki o'zi ham ayrim qirralarni yaratdi. Butun bir asar Karib orollarida tarqalib ketgan irim-sirimlarga, Kristofinning obea-jodudan Antuanetta uchun sevgi og'usini tayyorlab berganligi kabi qismlarni eslatib o'tish joizdir. Hattoki, sen sehr joduga ishonasanmi? – deb so'raydi Kristofin *"So you believe in tim-tim story about obeah"* [7; 102-b.] Rochesterning Yamayka orollari haqidagi yurakni qisadigan darajada degan tasvirini ham gotik deb atash mumkin. *"Every thing is too much, I felt as I rode wearily after her. Too much blue, too much purple, too much green. The flowers too red, the mountains too high, the hills too near. And the woman is stranger"* [7;102-b.] Bronte kabi Riz aqldan ozish obrazini tanlaydi. Asarda Antuanet va uning onasi aqldan ozish tasviri mavjud.

Ularning ikkalasining ham o'z dunyosi bor va Rochesterni aynan Antuanetning real va hayolot o'rtasida qolib ketganligi qo'rqitadi. Shunday qilib, Rizning asosiy maqsadi "Jeyn Eyr" dagi gotik elementlarini o'z asarida ifodalash bo'lgan. Rochesterning Antuanet haqidagi o'ylov, qo'rquv va tashvishlarini ifodalash va bu madaniyat va joy tasviri yordamida amalga oshirilgan. Shunday ekan, oldin ta'kidlanganidek Jin Riz "Wide Sargasso Sea" asarini "Jeyn Eyr" asaridan intertekstuallikdan foydalangan holda yozadi va ayniqsa tush, gotik elementlari, Bronte foydalangan mavzular yoritilganligi uning yaqqol dalilidir. "Postmodernizmdagi intertekstual romanlar sirasiga kiruvchi bu ikki asar bir vaqtda o'qilishi kerak chunki bular bir-birini to'ldirib turuvchi asarlar sifatida tan olingan".[12; 239-b.]

"Wide Sargasso Sea" asari postmodernizmning asosiy g'oyalaridan biri bo'lgan "Hech qaysi asar yagona emas, har bir asarning takrori, davomi yoki ikki asar qo'shilishidan yangi asar yaratilishi mumkin degan g'oyani ilgari suradi". [6; 73-b.]

**Xulosa.** Ish yakunida, Jin Riz asarida intertekstuallikning bo'lishi asarning aynan postmodern asar ekanligining yaqqol isbotidir. Jin Riz Brontening "Jeyn Eyr" asarini intertekst sifatida tanlaydi. U "Jeyn Eyr" dagi qahramonlardan biri bo'lgan Bertani tanlaydi va uning o'tmishini yorutuvchi to'qima asar yozadi. Asarning qahramonlari va mavzusi bir-biriga o'xshaydi. Asarning intertekstuallikka asoslanib yozilganligini quyidagi uchta qirra ifodalaydi:

Birinchi navbatda, “Jeyn Eyr” asarining qayg’uli yakunidan norozi bo’lgan Jin Rizning qahramonlaridan biri bo’lgan Bertani tanlab u haqida “Jeyn Eyr”ga o’xshagan boshqa bir asar yaratadi.

Ikkinchidan, o’xshashlik ikkala asarda ham tush motivining bo’lishi va kelajakka ishora qilishidir.

Uchinchidan, gotik usulidan foydalanishdir. Bu usuldan foydalangan Sharlotta Brontedan ilomlanib Jin Riz kitobxonda shubha va qo’rquv hissini uyg’otadigan syujetlardan foydalanadi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Abrams, M. H. A Glossary of Literary Terms. Ninth Ed. –Tehran: Rahnama, 2014
2. Charlotte Brontë. Jane Eyre. – UK: Household ed. Global Gray, 2014
3. Eyvazi Mojgan et. al International Journal on Studies in English Language and Literature (IJSELL)
4. Gordon Alan. “Dreams in Jane Eyre.” – England: The Victorian Web. Brown University , 2004. Web. 27 June 2014.
5. Habib, M. A. R. Modern Literary Criticism and Theory. – USA: A History. Blackwell Publishing, 2005.
6. Herischan, Nazila. "Jean Rhys's Wide Sargasso Sea as a Hypertext of Charlotte Bronte's Jane Eyre: A Postmodernism Perspective." – USA: International Journal of Applied linguistics and English Literature 1.6 (2012)
7. Jean Rhys. Wide Sargasso Sea. – New York: Constable. 1967.
8. Julia Kristeva. *Passions of Our Time*. New York. Columbia University Press. 2018 B. 69
9. Kilicheva M. POSTMODERN NARRATOLOGY IN “TIME” S ARROW” BY MARTIN AMIS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). 2024. –Т. 45. – №. 45.
10. Saidova D., Kilicheva M. STYLISTIC ANALYSIS OF “A HAUNTED HOUSE” BY VIRGINIA WOOLF – Uzbekistan: Talqin va tadqiqotlar, 2023. – Т. 1. – №. 20.
11. Kilicheva M. R. Composition of “Jane Eyre” and “Wide sargasso sea” //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2023. – Т. 12. – №. 5. – B. 74-79.
12. Kilicheva, M. R. (2023). Interpretation of Dreams In—Jane Eyre|| And—«Wide Sargasso Sea»||. *Scientific Reports Of Bukhara State University*, 4, 239-242.
13. <https://www.britanica.com>
14. <https://www.goodreads.com>
15. <http://www.caribbean-beat.com>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/3(4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).